

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

6.2020

**научно-методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2020

Nom qo'yish muhim ahamiyatga ega ekan. Keyingi restoranlarimizdan biri bu: *Samo* – osmon, ko'k, falak ma'nolarini anglatadi. Aslida, turkiycha nomi *ko'k* so'zidir. *Joziba* – yoqimlilik, dilbarlik, malohat ma'nolarini anglatib qolmasdan *o'ziga tortuvchi kuch* ma'nolarini anglatadi. *Jiz-biz* – o'zi, aslida, ma'nosi ovqat turlaridan biri bo'lib, *qovurilgan go'sht* ma'nolarini anglatadi. Keyinchalik esa restoran nomiga o'tib qolgan. Bu yerda faqat qovurilgan go'shtmas xohlagan taomingizni tanovul qilishingiz mumkin. "*Rayhon*" milliy taomlari hozirda eng ommabop oilaviy restoranlarimizdan hisoblanadi. Aslida, bu nomning ma'nosi *arabcha* so'z bo'lib, xo'shbo'y o'simlik turi. Labguldoshlariga mansub, osh-ko'k o'simlik. Bu restoranning o'ziga xos tomoni bu yerda spirtli ichimliklar ichish va tamaki mahsulotlar chekish taqiqlanadi. Bu esa iste'molchilarni yanada o'ziga tortmoqda. Bunaqa restoranlar bisyor.

Yuqorida ko'ryapmizki, nomlar o'zgacha, bu nomlar o'ziga xos jozibasi bilan ajralib turadi. Nom haqida mashhur bir biznesman shunday deydi: "Nomda nima bor? Ko'p narsa, ayniqsa, bu nom restoran kabi biznes bilan bog'liq bo'lsa. Restoran nomi identifikatorining bir qismidir. Kimdir buni eshitganda yaxshi tuyg'ularni uyg'otishi kerak yoki o'tmish oqshomining baxtli xotirasini chaqirish yoki bu joyni sinab ko'rish uchun qiziqish. Yaxshi restoran nomi restoran konsepsiyasini aks ettiradi va u yerda topiladigan ovqatlanish turini, joylashishni va havoni taklif qiladi".¹ Albatta, har qanday tashkilot bo'ladimi, korxonaga bo'ladimi va shu qatorda restoran bo'lsa ham, nom katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham nom tanlashda uzoqni ko'zlab, ertaga qanaqa effekt beradi degan tushuncha bo'lishi lozim. Yuqorida sanab o'tilgan kafe-restoran nomlarida qaysidirlari arabcha, qaysidirlari forscha, qaysidirlari o'zbekcha bo'lishi mumkin, lekin hozirda o'zbekchalashib ketgan so'zlardir. Yana bir narsani alohida ta'kidlash joizki, qaysi mamlakatga bormang, o'sha mamlakatning milliy tilida yozilgan so'zlarini ko'rsangiz, yoki o'sha mamlakatning tilida yozilgan restoran nomlariga ko'zingiz tushsa, birinchi navbatda, o'sha mamlakatning tiliga bo'lgan e'tiborni ko'rasiz, shu bilan bir qatorda, qaysi davlatda yurganligingizni his qilib turasiz. Masalan: xohlang AQSH, xohlang Fransiya, xohlang Germaniyaga, shu bilan bir qatorda, O'zbekistonga ham.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qaysi davlatga tashrif buyurmang o'z milliy urf-odatlarini namoyish qilishga harakat qiladi, ya'ni o'z milliyligini ko'rsatishga harakat qiladi. Shu bilan bir qatorda, ovqatlanish joylarida ham shu taqlidni qilishadi. Chunki ovqatlanish joylari ham millatning o'ziga xosligini ko'rsatib turuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun restoran bo'ladimi yoki kichik choyxona bo'ladimi, hammasida o'z davlat tilida nomlangan bo'lsa, tashrif buyuruvchida o'sha davlatga nisbatan hurmat hissi paydo bo'ladi, ya'ni o'sha davlat "brend"i haqida taassurot paydo bo'ladi. Bu narsa milliylikni ko'rsatuvchi omildir. Biz zamonaviylikka, davr bilan hamnafas yashashga qarshi emasmiz. Lekin o'zimizning, qadim va ulug'vor ona tilimizda minglab chiroyli so'zlar bo'la turib, ko'r-ko'rona xalqimiz uchun, umuman, yot bo'lgan atamalarni muomalaga olib kirishni ham oqlab bo'lmaydi. Milliy madaniyat, til, ma'naviyatimizni asrash mana shunday kichik "xavf"larni bartaraf etishdan boshlansa, ajabmas.

Ibaydullayev Temur Gaybullaevich (Jizzax politexnika instituti)
O'zbekiston tarixi va ijtimoiy fanlar kafedrasida assistenti, timur-85@list.ru)
LIBOSNING FUNKSIYALARI VA UNING O'ZIGA XOS BELGILARI

***Annotatsiya.** Maqolada madaniyatning muhim qismi bo'lgan libos – avloddan avlodga o'tib, asrlar osha takomillashib, millatning ichki va tashqi dunyosini ifoda etadigan fenomen ekanligi asosida uning funksiyalari va belgilari tadqiq etiladi. Libosning yaratuvchanlik, himoyalash, qulaylik yaratish, nuqsonlarini berkitish, afzalliklarini ko'rsatish, ozodalikni saqlash, axloqiy, axboriy, estetik, go'zallashtirish, xavfsizlik kabi funksiyalari aniqlangan hamda kishilarning jinsi va yoshi, hududiy, etnik, diniy, ijtimoiy va davriy mansubligini ifodalovchi belgilari tahlil etgan.*

***Аннотация.** В статье исследуются функции и своеобразные признаки одежды как феномена, который отражает внешний и внутренний мир нации, формировавшийся через века от поколения к поколению, как его основная составная часть культуры народа. Определены такие функции одежды, как созидательность, защита, удобство, сокрытие недостатков, показ преимуществ, соблюдение чистоты, нравственность, эстетичность, придавать красоту, безопасность. А также проанализированные признаки выражения социальности, возраста и пола людей, этничности, принадлежности к тому или иному периоду и социальной группе.*

¹ Евдокимова К.В. Наминг технологияси.

Annotation. *The functions and peculiar features of clothing based on a phenomenon that reflects the external and internal world of a nation, which has been formed through centuries from generation to generation as its main and special part are researched in the article. Functions are defined as creativity, protection, convenience, unnoticed flaws, advantage, respect for cleanliness, morality, aesthetics, to impart beauty, safety. And signs of expression of sociality and period, age and gender of people, ethnicity are also analyzed.*

Kalit soʻzlar: *madaniyat, milliy qadriyat, etnos, libos, libos funksiyalari, libos belgilari, kiyim.*

Ключевые слова: *культура, национальная ценность, этнос, костюм, функции одежды, признаки одежды, одежда.*

Key words: *culture, national value, ethnos, costume, clothing functions, signs of clothing, clothing.*

Dunyodagi barcha xalqlar, millatlar va elatlar bir biridan urf-odatlarini, marosimlarini, qadriyatlarini, tili hamda liboslari bilan farq qiladilar. Libossiz birorta etnosni tasavvur qilib boʻlmaydi. U millatning ichki va tashqi dunyosini aks ettiruvchi, mintalitetini ifodalovchi, madaniyatni koʻrsatuvchi fenomen sifatida namoyon boʻlishi bilan ahamiyatlidir. Libosning tabiiy-zaruriy ehtiyoj asosida paydo boʻlishi, rivojlanishi – uning madaniyat darajasiga koʻtarilishi uni sanʼat asariga aylanishiga olib keladi. U har bir kishining ham tashqi va ichki qiyofasini, ongi, xarakteri, odati va didini oʻzida aks ettirib turishi, uning muhim madaniy fenomen sifatida namoyon boʻlishiga zamin yaratadi.¹ Shu sababli uni har tomonlama oʻrganish, uning funktsiya va xususiyatlarini aniqlash bugungi kunning dolzarb masalaridan biriga aylantiradi.

Libosning funksiyalari, xususiyatlari va belgilarini oʻrganishda analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, taqqoslash, qiyosiy tahlil, kuzatuv hamda adabiyotlarni oʻrganish kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Libosga oid tadqiqotlarda uning funksiyasini aniqlashga oid harakatlarni U.Rahmatullayeva, G.K. Xasanboyeva, V.A.Chursinalarning ishlarida uchratish mumkin. Jumladan, libosshunos tadqiqotchi U.Rahmatullayeva kiyinish madaniyatining bugungi kunga xos quyidagi funksiyalarini aniqlaydi: a) tabiiy omillar taʼsiridan badanni himoya etish; b) insonga qulaylik tugʻdirish; d) jamiyat axloqi va milliy-etnik xususiyatiga mos oʻdnobni namoyon etish; e) jamiyat aʼzolarining hurmat-ehtiromini qozonish, xush kayfiyat uygʻotish kabilarga eʼtibor qaratgan.² Shu bilan bir qatorda, libos tarixini oʻrganish tadqiqotchilardan G.K.Xasanboyeva, V.A.Chursinalar libosning quyidagi funksiyalariga asosiy eʼtiborni qaratishgan: a) himoya; b) biostimulatsiya; d) erotik; e) ijtimoiy; f) belgi; g) estetik kabilarga boʻlib oʻrganish [3].

Yuqoridagi koʻrsatilgan funksiyalari, albatta, diqqatga sazovor. Ularni asos sifatida qabul qilsa boʻladi. Biroq bizningcha libosning funksiyalari doirasi ancha keng.

Libos haqidagi mavjud maʼlumotlarni oʻrganib, tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon qilamiz. Avvalo, libosning vujudga kelishi turli xil omillarning taʼsiri natijasida yuz berdi. Jumladan, birinchidan, bu omillarning dastlabkisi tabiiy omil boʻlib, unga koʻra tabiiy muhit, iqlim, ob-havo, yaʼni kunlarning soʻvishi libosni vujudga kelishiga asosiy turtki boʻlgan; Ikkinchidan, libosning vujudga kelishida ijtimoiy-siyosiy omil ham muhim ahamiyatga ega boʻlib, unga koʻra jamiyat aʼzolarining ichki va tashqi munosabatlari, davlat boshqaruvidagi siyosiy aloqalar va islohotlar kiyimning vujudga kelishiga sabab boʻldi; uchinchidan, iqtisodiy omil libosning vujudga kelishida oʻziga xos oʻringa ega. Unga koʻra, mamlakat aholining iqtisodiy imkoniyatlari, moddiy ahvoli libosning vujudga kelishi, shakli va koʻrinishini belgilab bergan; toʻrtinchidan, diniy omil muayyan taʼlimotlari doirasida tartibga solingan, milliy va diniy dunyoqarashlar taʼlimotlarni targʻib qilish, dinlar vakillarini ajratib turishi vujudga keldi; beshinchidan, madaniy omil bu libosning vujudga kelishida muhim oʻrin tutadi. Ushbu omilga koʻra millatning odatlari, anʼanalari, qadriyatlarini libosni vujudga kelishi olib keladi.

Mana shulardan kelib chiqib, tabiiy omil, ijtimoiy-siyosiy omil, iqtisodiy omil, diniy omil va madaniy omillar liboslarni takomillashtirib, ularning turlarini koʻpayishiga, funksiyalarini vujudga kelishiga sabab boʻldi.

Libos funksiyalari haqidagi mavjud maʼlumotlarni oʻrganib, tahlil qilib, bu borada takliflarimizni yaratdik va ularni quyidagicha tavsifiya qilamiz:

¹ Зайцев В. Этот многоликий мир моды. Москва, “Советская Россия”, 1982, с. 50.

² Rahmatullayeva U.S. Oʻzbek xalqining kiyinish madaniyati: anʼanaviylik va zamonaviylik (falsafiy-madaniy yondashuv” mavzusidagi dissertatsiya avtoreferati, Toshkent, 2010, 13-bet.

1. **Yaratuvchanlik** funksiyasi. U tufayli – libos inson tomonidan yaratiladi va kiyiladi. Libos – insonning ijodiy faoliyati mahsuli bo‘lib, yaratuvchi (bichuvchi, tikuvchi)ning mahorati uning bichimi, ko‘rki va madaniy darajasini belgilab beradi.

2. **Himoyalash** funksiyasida – libos insonni atrof muhitning turli salbiy oqibatlaridan himoya qilish, issiq – sovuqdan asrash, tabiat injiqliklari va boshqa hayotiy noqulayliklardan saqlash bilan bog‘liq vazifalarni bajarishi bilan muhim.

3. **Hurmat qozonish** funksiyasi – ijtimoiy hayotda libos orqali boshqalarga yoqish va insonning ko‘rinishiga qarab, atrofdagilarni ehtiromiga erishish kabi vazifalarni bajaradi.

4. **Qulaylik yaratish** funksiyasi – libos kishilarga kundalik hayotida, o‘qishda, ishda, sport va turli vazifalarni samarali bajarishga yordam beradi.

5. **Nuqsonlarini berkitish** funksiyasi – insonlar liboslardan tana a‘zolarining kamchiliklarini yashirib, ularni berkitishga harakat qilishni nazarda tutadi. Xususan, Yapon ayollarining qaddi-qomatining o‘ziga xosligi, ya‘ni, bo‘yinlari uzun, oyoqlari nisbatan kaltaroq bo‘lganligi sababli ular qavat – qavat libos kiyib, qomatlaridagi kamchiliklarini ustalik bilan yashirganlar.¹

6. **Afzalliklarini ko‘rsatish** funksiyasi – inson (yuzi – qo‘li)dagi ijobiy fazilatlar, go‘zal tomonlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

7. **Ozodalik** funksiyasi – tashqaridagi iflosliklarni badanga o‘tkazmaslikka, tanani toza tutishga, ozodaligini saqlashga ko‘maklashadi.

8. **Axloqiy** funksiyasi – libos odamni odobini saqlashga, ahloqi, yaxshi hulqini namoyon etishga yordam beradi.

9. **Axboriy** funksiyasi – libos odamni qayerdanligi, ijtimoiy kelib chiqishi, kim ekanligi, yashash tarzi, yoshi, jinsi, madaniyati, odobi va odatlari haqida ma‘lumotlarni bildirib turadi.

10. **Estetik** funksiyasi – inson va uning libosini go‘zalligini tarannum etadi, atrofdagilarda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi hamda atrofdagilar orasida obro‘ qozonishga xizmat qiladi.

11. **Xavfsizlik** funksiyasi – insonni nafaqat tashqi noqulay muhitdan himoya qiladi, balki xavfsizligini ta‘minlash maqsadida maxsus yaratilgan liboslar o‘q o‘tmaydigan, jang maydonlarida turli ta‘sir-lardan ham saqlashga xizmat qiladi.

Xullas, libosning yaratuvchanlik, himoyalash, qulaylik yaratish, nuqsonlarini berkitish, afzalliklarini ko‘rsatish, ozodalikni saqlash, axloqiy, axboriy, estetik go‘zallashtirish, xavfsizlik va boshqa funksiyalarini qayt etsa bo‘ladi.

Shu bilan bir qatorda, XXI asrga kelib liboslar turli xil funksiyalarni bajaradigan gadjetga aylanib, tananing holatini kuzatish, sog‘lingiz haqida ma‘lumot berish, vazn yo‘qotish, izolyatsiya, materiallar to‘plamidagi o‘zgarishlar, yong‘inga chidamliligini yoki rangni mustaqil ravishda o‘zgartira oladigan zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan kiyimlar to‘plamlari taqdim etilmoqda. Bundan tashqari, geometrik shakllardagi teshilgan matolar, muammosiz trikotaj kiyimlar, 3D – printlar, poliamid tolali nanotissues va molekulyar darajadagi materiallarning o‘zgarishi, ularga po‘latdan besh baravar kuchliroq tabiiy ipak yoki suv va boshqa yog‘larni qaytaradigan lotus barglari va boshqalar kabi xususiyatlarni beradi.

Shunday qilib, libos – tabiiy omillar ta‘siridan badanni himoya etadi, inson tanasining kamchiliklarini berkitadi, afzallik tomonlarini namoyon qiladi, uning ozodaligini, odobini saqlashga, axloqini ko‘rsatishga xizmat qiladi, shuningdek, u odamni kim ekanligi, yashash tarzi, yoshi, jinsi, madaniyati haqida ma‘lumotlarni bildiradi, atrofdagilarda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi hamda hurmat-ehtirom qozonishga ko‘maklashadi, jamiyat axloqi va milliy-etnik xususiyatiga mos madaniyatni namoyon etishga xizmat etadi va inson qiyofasi bilan uyg‘unlashib, uni go‘zallashtiradi.

Liboslar insonni nafaqat tarixiy davr, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, estetik va axloqiy qiyofasi, balki uning ichki dunyosi, ma‘naviy ruhiyati darajasi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli libosning funksiyalari bilan birga uning insonni ichki dunyosi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos vazifalari ham mavjud. Ularni falsafa fanlari doktori, professor U.X.Qoraboyev atroflicha tahlil qilgan. Xususan, u inson o‘z ichki dunyosini libos orqali ifodalashi natijasida quyidagi vazifalarni bajarishini ta‘kidladi:

- eng oddiy hayotiy ehtiyojlarni qondirish;
- «men» qiyofasini shakllantirish, tasdiqlash, uni himoyalash va boshqalar;
- tabiat noqulayliklari, tabiat kuchlari, yomon ruhlardan asrash;
- do‘stlar e‘tiborini tortish, dushmanlarni qo‘rqitish;
- sehrli belgilarga diqqat tortish va unga ishontirish;

¹Rahmatullaeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. Libos tarixi. Toshkent, “Sano-standart”, 2015, 197-bet.

– shaxsiy xislatlarni (botirlik, qo‘rqmaslik, xushmuomalalik, oddiylik, e‘tiqod va boshqalarni) aks ettirish;

- tashqi qiyofasidan ko‘ngli to‘qlik;
- jamiyatda o‘zini (etnik, madaniy, estetik) namoyon qilish;
- etnik nuqtayi nazarlar (milliy o‘zligini anglash, etnik qadriyatlarga qo‘shilish);
- yoshga xos xususiyatlar shakli va ruhiyati;
- o‘zini ijobiy namoyon qilish;
- tashqi qiyofada emotsional va hissiy holatning namoyon bo‘lishi va boshqalar.¹

Xullas, insonlar libos orqali o‘zining ichki dunyosini namoyon qilishi bilan bir qatorda, boshqa shaxslarga salbiy yoki ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi bilan ahamiyatli ekanligini ham ko‘rsa bo‘ladi.

Shu bilan bir qatorda, libos kishilarning jinsi va yoshi, hududiy, etnik, diniy, ijtimoiy va davriy mansubligini ifodalovchi birmuncha murakkab belgililari mavjud bo‘lib, u orqali quyidagilarni bilib olish mumkin:

- yetuklik yoshi;
- sirli o‘zgarishlar;
- ijtimoiy maqomga erishish;
- muayyan etnosga tegishlilik;
- estetik e‘tiqod;
- tarixiy davr (muhim tarixiy voqea va hodisalar);
- davriy xususiyat;
- etnopsixologik xususiyatlar;
- milliy urf-odat, marosimlar, diniy mansublik;
- geografik va geofizik sharoitlar;
- milliy o‘zlikni anglashning ma‘naviy xususiyatlari;
- Atrofdagilarning hayot tarzi, ta‘bi va tasavvurlari, ijtimoiy mansublik darajasi, maishiy hayot tarzi va boshqalar. Shulardan kelib chiqib, libos insonning ichki va tashqi dunyosini, uning ma‘naviy, ruhiy va axloqiy xususiyatlari, ongi va dunyoqarashi, bilim saviyasi, orzu-intilishlarini o‘zida aks ettiradigan bebaho meros deb ta‘rif bersak bo‘ladi.

Shu asnoda, libos kishining qanday etnik, ijtimoiy yoki yosh – jins guruhiga mansubligi, uning libosi qanday voqealar munosabati bilan kiyilganligi, u qachon va qayerda yashaganligi kabilarni anglatuvchi axborot-kommunikativ ma‘nolardan iborat bir qancha belgilarni anglatuvchi vosita bo‘lib qoldi. Shuningdek, libosining badiiy qiyofasi, obrazli tizimi, kim uchun mo‘ljallanganidan tashqari, moddiy-ma‘naviy turmush tarzi, etnogenezi va tarixiy o‘tmishi, tabiiy-iqlim sharoiti va mehnat faoliyati, jamiyatning siyosiy tizimi va madaniy-maishiy hayoti, mafkuraviy qarashlari va muayyan mamlakatlar bilan o‘zaro madaniy aloqasi kabilarni bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lgan. Shu bilan birga, libosning rangi, bo‘yoqlarning uyg‘unligi, bezagi, shakli, qanday sharoitga mo‘ljallanganligi, bichimi, materiali, ramzi singari doimiy xususiyatlari, xuddi o‘ziga xos etnik uslubda qotib qolgandek tuyulaveradi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib, libos funksiyalari, xususiyatlar va belgilari haqidagi mavjud ma‘lumotlarni o‘rganib, tahlil qilib, xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, birinchidan, libos inson tana qismlarini tabiiy ta‘siridan himoya etadigan, kamchiliklarini berkitadigan, uni abzalliklarini namoyon etadigan, shuningdek, ozodaligini saqlashga xizmat qiladigan vositadir; ikkinchidan, libos insonning ijodiy faoliyati mahsuli bo‘lib, u kishilarga kundalik hayotda va turli vazifalarni bajarishda qulaylik yaratishi, odob-axloqini saqlashga yordam beradigan qadriyatdir; uchinchidan, libos odamni kim ekanligi, yashash tarzi, yoshi, jinsi, madaniyati haqidagi ma‘lumotlarni bildiradigan meros; to‘rtinchidan, kiyim atrofdagilarda yaxshi kayfiyat uyg‘otadigan hamda hurmat-ehtirom qozonishga ko‘maklashadi; beshinchidan, u milliy-etnik xususiyatiga mos madaniyatni namoyon etishiga xizmat qilishi hamda inson qiyofasi bilan uyg‘unlashib, uni go‘zallashtirishiga olib kelishi bilan muhimdir.

¹ Usmon Hosil (Qoraboyev). Odatnoma. 2-kitob, Toshkent, “O‘zbekiston”, 2018, 100-bet.

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA

Ahmadov Pnom. Kasr tartibli integro-differensial operator qatnashgan yuklangan parabolik-giperbolik tipdagi tenglama uchun trikomi masalasiga o'xshash masala.....	3
Алиқулов Самар Саттор ўғли. Квант физикасида экспериментларни моделлаштириш асослари хақида.....	7

OGAHIIYXONLIK

Ғайипов Дилшод. Огаҳий шеърятдаги кофия санъатларига доир.....	10
--	----

FALSAFA

Куйлиев Бобур Тўлкинович. Давлат ва жамият ўзаро мутаносиблигини тадқиқ этишнинг назарий-методологикасослари.....	14
Қиличев Феруз. Шахс экологик маданиятини юксалтиришда диний қадриятларнинг ўрни.....	17
Бабажанов Сарварбек Бекпулатович. Аргументлашнинг тарихий-фалсафий илдизлари.....	20
Жўраев Алишер Тўлқинбойевич. Инсоннинг ўз-ўзини айнанлаштиришида давлат омилининг роли.....	24
Азизов Тухтамиш Аъзамович. Фавқулодда вазиятларда экологик хафсизлик борасидаги давлатлар ўртасидаги сиёсат.....	27

TARIX

Махмудов Бехзод Хамидович. Қарлуқ-қорахонлар давлатида ҳарбий бошқарув тизими.....	30
Қудайбергенова Дилфуза Аскарловна. Қорақалпоқ аёлларининг безаниш буюмлари.....	33
Айтмуратова Жаңылсын Жалғасовна. Миллий маданиятимизнинг ривожланишида театр зиёлиларининг хизмати.....	35

TILSHUNOSLIK

Абдувахобова Дилноза Нурмаҳаматовна. Эмотивлик категорияси замонавий тилшунослик парадигмасининг бир қисми сифатида.....	39
Мадаминова Мухаббат. Ундалманинг лингвопрагматик хусусиятлари.....	41
Отақулов Нодиржон Баҳромалиевич. Оламнинг лисоний манзарасида мезуратив вақт бирлигининг ифодаланиши.....	45
Давлатова Раъно Ҳайдаровна. Дейксис ҳодисасида мулоқот шахсининг ўрни.....	50
Каримова Зулнура Ғуламқодировна. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг гендер хосланлиши.....	54
Зикруллаева Хусния Бахтиеровна. История развития узбекской научно-технической терминологии.....	58

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ro'zimboyev Safarboy, Самандарова Лола Султановна. Фольклор ва фольклоризмлар хақида.....	62
Пирназарова Манзура Матназаровна. Халқ қалбидаги ижодкор.....	64
Ғаниева Орзигул Хайридиновна. “Қайғуларимиз зимистони” романида инсон ва жамият муносабатлари тасвири.....	67
Шарипова Раҳима. Рауф Парфи шеърятда шамол рамзлари талқини.....	70
Абдурашитова Эльвира Тафқильевна. Гендерная идентификация персонажей в литературе.....	73

PEDAGOGIKA

Худайберганов Ғайрат Қуранбоевич. Математика дарсларида татбиқий масалалардан фойдаланиш.....	76
Махаметова Дилнавоз Ботировна. Малака ва ташкилотчиликнинг талабалар амалий чет тил кўникмаларини ривожлантиришдаги ўрни.....	79

Эгамбердиева Гулноза Абдурахмановна. Ўқув жараёнини баҳолашда PIRLS баҳолаш тизимидан самарали фойдаланиш.....	82
Saidov Ravshan Tursunovich. Ingliz tilini o‘qitishda o‘qish ko‘nikmasini hikoyalar asosida rivojlantirish muammolari.....	85
Курбонов Жасурбек Акмалжонович. Талабаларда замонавий интеллектуал ва инновацион кўникмаларни ривожлантиришнинг ташкилий-педагогик жиҳатлари.....	87
Назарова Дилдора Асатовна. Умумий ўрта таълим мактаблари раҳбарларини инклюзив таълим ша-роитида фаолият олиб боришга тайёрлаш жиҳатлари.....	91
Туракулов Иброхим Равшанович. Олий таълимда жисмоний тарбия машғулотларининг педагогик мониторинги.....	96
Норбўтаев Хўшбок Бобоназарович. Мактаб ўқувчиларида экологик тафаккурни табиий фанлараро алоқадорликда шакллантириш.....	98
Хусаинова Лейла Юнусовна. Методика преподавания иностранных языков с использованием тех-нических средств обучения.....	102
Ериева Садокат, Исроилова Умида, Амонликова Нодира Химматовна. Теоретические аспекты основ эстетических чувств студентов английской филологии.....	105
Рахманова Мамура Шахридиновна. Изучение влияния ролевой игры на успешное усвоение лекси-ческого материала: методические аспекты.....	110
Ikromov Amirbek Aminovich. Methods of using Action Games with Didactic Orientation in the Elementary Classes.....	114
Karimova Dilorom Shavkat qizi. The use of Interactive Methods in English Language Teaching.....	117
Ахмедова Мухайё Таджимухаммадовна. Using Interactive Whiteboard in Teaching English as a Foreign Language at Primary Schools.....	119

ILMIY AXBOROT

Бахтияров Мухторжон. Семантик кўчишларнинг когнитив моҳияти.....	123
Собирова Раънохон. Уй-рўзгор буюмлари номларининг лингвокультурологик табиати.....	125
Karimova Shaxnozaxon Karimovna, Nazarova Gulshod Xodjiyevna. Vaqt ma’nosini ifodalovchi birlik-lar.....	128
Кошева Дилрабо Худоёровна. Инглиз ва ўзбек тилларидаги нутқ фаолияти иборалари, уларнинг эквиваленти ва семантик таҳлили.....	131
Жумаев Эркин. -(а)р экан шакли ва ўзлаштирма буйруқ.....	135
Ахмедов Дилшод Комилжонович. Эркак ва аёл ёзма нутқларининг ўзига хос хусусияти.....	140
Жумаева Барно. Инглиз ва ўзбек тилларида қўлланиладиган фраземалар таркибидаги лексик-грам-матик бирликлар таҳлили.....	142
Сайдалиева Гавҳархон Авазовна. Замонавий тилшуносликда фразеологик синонимларнинг ўрни ва ўзига хос хусусиятлари.....	146
Masharipova Rohat, Omonboyeva Aziza, Xudayberganov Yodgorbek. Hudhud – komil shayx timsoli.....	148
Жўраева Мадина Абдужалиловна. Абдурахмон жомийнинг “Ал-фавоид уз-зиёийа” асарида “Қа-раткич келишигидаги исмлар” таҳлили.....	151
Ўрмонова Нигорахон Мўминовна. Чет тилларга мукаддас китоб таржималари тарихидан.....	154
Samigova Khushnuda Botirovna. Ingliz shifokorlari nutkida ritorikaning qiёсий tadqiqi.....	157
Турובה Садоқат. Лексик ва грамматик ҳодисаларнинг қиёсий ўрганилиши.....	159
O‘rozov Jumanazar Norqizilovich. O‘zbek tilida umumiy ovqatlanish obyektlari nomlarining leksik-se-mantik tahlili.....	163
Ibaidullayev Temur Gaybullaevich. Libosning funksiyalari va uning o‘ziga xos belgilari.....	166
Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna. Ot semantik sistemasida zoonimlarning o‘rni.....	170
Бобожонова Шохсанам. “Ахлоқ” концептининг тил тизимидаги ўрни.....	173
Toshpo‘latova Xusniya Mamayusub qizi. Tarjimada leksik muvofiqlik masalasi.....	175
Каллибекова Гулнара Палбековна. Ахборий жанрлар: тили, мавзуси ва услубий хусусиятлари....	178
Досбаева Наргиза Турғунпулатовна. Таржима контекстида тил ва маданиятнинг ўзаро таъсири...	182
Мухаммедова Нилуфар. Бернард Шоу ижодида образлар турфа хиллиги.....	186
Мухаммедова Хулкар. Инглиз адабиётида аёллар насри Жорж Элиот ижоди мисолида.....	189
Турумова Тамара, Тангрибергенова Гулора. К вопросу о наименовании (назывании) лиц в ря.....	192

Жалгасов Нуржан. Интерпретация концептосферы “Человек – семья” в пословицах английского, узбекского и каракалпакского языков.....	195
Попов Дмитрий Владимирович. Берестяные грамоты – памятники письменности древней руси...	198
Хамраев Баходир Джаббарович, Хасанова Наргиза Хударгеновна. Неологизмы и их роль в обогащении словарного состава современного русского языка.....	201
Зулхонов Мустафо Жураевич, Комолова Шахнозахон Адхамовна. Выявление актуального значения лексических единиц оригинала и подбор соответствующих им эквивалентов при переводе с немецкого на русский язык.....	203
Ибрагимова Наргиза Маратовна. Рассказы Зульфии Куролбой кизи в контексте современной женской прозы узбекистана.....	206
Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna. “Discursive-Diologial Interpretation of the Literary Text Based on S.Mougham’s Short Story “Mr. know-all.....	210
Shomurotova Bibikhon Uktamovna, Yusupova Shoira Botirovna, Sapayeva Dilfuza Norbayevna. Types of Synonyms in the Medical Terminology.....	213
Abdullayeva Komila Timurovna, Safarova Nigina Mamurjonovna. The Particularities of Distinguishing Terminological and Non-Terminological Units of the English Language.....	215
Otajanova Lola Ozodovna. The Collocative Meaning of Synonyms in English and Uzbek Languages....	219
Жўраева Малоҳат Мухаммадовна, Кади́рова Наргиза Арифовна. Aperçu général de l’utilisation de la motive de transformation dans “La peau de chagrin” de balzac.....	222